

FORTEPIANO IJROCHILIGIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI

*Nizomiy nomidagi TDPU
Musiqqa madaniyati fakulteti
3-bosqich 302-guruh talabasi*

Baxtiyarova Duriya

+998 90 062 91 61

Rahmatova Nargiza

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Maqolada fortepiano ijrochiligida shaxsning rivojlanishidagi ahamiyati, fortepiano san'atining o'quvchilar ma'naviyati va mafkurasini shakllantirishda pedagogikaning o'рни haqida atroflicha tahlillar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Musiqqa, shaxs, fortepiano ijrochiligi, ma'naviyat, pedadodika estetik did, ta'lim- tarbiya.*

Jahon musiqqa cholg'ulari orasida nihoyatda qulay, eng universal va imkoniyati boy musiqqa cholg'usi – fortepianadir." Shuni eng yaxshi tushunib olish kerakki, - deb G.G.Neygauz, musiqani va musiqqa savodini o'rganish umummadaniy ish bo'lib, bunda fortepiano eng yaxshi, tengi yo'q vositadir. Tilni, jamiyat haqidagi fanni, matematika, tarix, tabiatshunoslik va boshqalarni o'rganish ham madaniy kishi uchun majburiydir. Menga qolsa, o'rta maktabda fortepiano orqali majburiy ta'limni joriy qilar edim".

Musiqqa asbobini chalish, bu ishni, hatto bolalar bajarishi ham ijodiy faoliyatdir. U ijrochidan muayyan ko'nikma malakalarni emas, balki faollikni maqsadga intilishni, diqqat e'tiborlilikni va ijodiy tashabbuskorlikni ham talab qiladi. Musiqqa ijrochiligi bolalarda barkamollikka erishish, go'zalikkni anglash ishtiyoqoni hosil qiladi. Musiqqa asardagi badiiy obrazlar esa ularda estetik hissiyotni shakllantiradi, ularga barcha insoniy kechinmalarni yaxshiroq tushunishda yordam beradi. O'quvchilar turli musiqqa asarlari ustida ishlashda muayyan dunyoqarashda aks etgan hayotda yashash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu kechinmalar bilan birga ma'lum ma'naviy-estetik tushunchalar ham vujudga keladi.

Milliy musiqqa atrofdagi hodisalarni, go'zalikkani idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi, nozik did va ijobiy fikr bilan qurollantiradi, ma'naviy olamni kengaytiradi. Shu bois, musiqani tilsiz falsafa deb bejiz aytishmagan. B.M.Teplovning fikricha, badiiy tarbiyada ya'ni shunisi ham muhimki, bir san'atdagi "ishlar" san'atning boshqa turlardagi badiiy qobiliyatlarning shakllanishiga katta yordam berishi mumkin. O'quvchi va talabalarda badiiy bilimlar qancha ko'p bo'lsa, ular har xil san'at asaridagi obrazlarni shuncha to'la va chuqur tushunishlari va anglashlari mumkin. San'at bilan bevosita amaliy shug'illanishning o'ziyoq juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ijro etilayotgan obrazlarga va ular orqali

voqe'likdagi hodisalarga, hissiyot va kechinmalarga estetik munosabat o'quvchilarni estetik tarbiyalashning eng bevosita va faol yo'lidir.

Oliy o'quv yurtidagi ta'lim va tarbiya, zamon talablariga javob beradigan va amaliy faoliyatni boshlashdan oq, uning muvoffaqiyatini ta'minlaydigan sifatlarga ega bo'lgan mutaxassislarni yetishtirishi lozim. Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayoni o'z vazifasi va jadlligiga ko'ra ancha murakkablashadi. Shuning uchun uning yo'nalishi, mazmuni va uslubiyati masalalarini ilmiy asosda hal qilmay turib, jamiyatning doimiy ortib borayotgan talablariga mos mutaxassislar tayyorlash samaradorligini ta'minlash mumkin emas.

Mutaxassis tayyorlashning maqsadi, vazifalari va xususiyatlarini o'rganish talablarni o'qitish hamda tarbiyalashning mazmuni, tamoyillari va usullarini to'g'ri belgilashning eng muhim shartidir.

Mana shu ishning hozirgi mavjud shakllaridan biri, yosh mutaxassis shaxsning xususiyatlarini rivojlantirishdir. Bo'lajak mutaxassisning mukammal qiyofasida, jamiyatning mana shunday mutaxassislariga ehtiyji yaqqol ko'rinadi. Binobarin, mazkur qiyofaning o'zi oliy o'quv yurtidagi ta'lim tarbiya jarayonini, rivojlantirish dasturi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir kasb o'ziga muhim sifatlarga ega bo'lishini talab qiladi. Mana shunday sifatlarni belgilash o'quvchi – yoshlar shaxsini shakllantirishning muayyan maqsadlarini belgilash hisoblanadi. Musiqa o'qituvchisining murakkab kasbi bir necha musiqa ixtisosliklarini o'z ichiga oladi. Lekin, ularning shunchaki yig'indisidan ibo rat emas.

Pedagogik nazariyani, tajribalarni anglamay turib zamonaviy o'qituvchi tayyorlashdagi mavjud amaliyotni tahlil qilmay va umumlashtirmay turib bu siha o'qituvchisining qiyofasinin tasvvur bqilib bo'lmaydi. Ana shu qiyofa mutaxassisiga qo'yiladigan talablarning muayyan tizimi sifatida nomayon bo'lib, bo'lajak musiqa o'qituvchisi shaxsini shakllantirishning imkonini beradi.

Oligohlar, o'rta maxsus, musiqa maktabi va umumta'lim maktablarida musiqa o'qituvchisining asosiy maqsadi – o'quvchilarni estetik , badiiy va ahloqiy tarbiyalash, ularda musiqa madaniyatini tarkib topdirish orqali shaxsini ma'naviy shakllantirishdan iborat. Shuning uchun ham musiqa tarbiyasi yosh avlodni uyg'unlikda kamol topdirishning muhim omili sifatida nomayon bo'ladi. Xususan, musiqa bilan shug'illanish badiiy anglash faoliyati bo'lib, bir qator omillarni o'z ichiga oladi. U g'oyaviy e'tiqodni shakllantiradi, ahloqiy jihatdan tarbiyalaydi, shaxsdagi qiziqishlarning psixologik maqsadi va yo'nalishlarini belgilaydi, ijtimoiy kayfiyatni vujudga keltiradi, tashkil etadi va birlashtiradi, ijtimoiy faollikni tarbiyalaydi. San'atni idrok etish his qilish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi, estetik va musiqiy didni o'stiradi, aqliy kamolotni, ijodiy faollikni, tafakkurni o'quvchilarda o'ziga xos xususiyalarni kuchaytiradi, zarur musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi, bo'sh vaqt muammosini hal qilishda yordam beradi.

Bolalar musiqani tushinishi uchun musiqa tilining ma'naviy va shakl yasash xususiyatlarini bilishlari, muayyan darajada rivojlangan musiqiy (tovush balandligi, temбири, musiqaning garmonik dinamik xususiyatlarini anglash, lad ba ritmni his qilish, musiqani eslab qolish) qobiliyatga musiqani idrok va ijro etish malakalariga ega bo'lishlari zarur.

Musiqa darslari o'quvchilarni faqatgina nafosat jihatdan emas, balki keng ma'noda ma'naviy- axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Musiqa o'qituvchisining faoliyati faqat musiqa darslari o'tish bilan chegaralanmaydi. Uning vazifasiga musiqa kechalari va tanlovlarga tayyorlash va o'tkazish, madaniy sayohatlar uyishtirish, musiqa va teatr sohalaridagi yangiliklar bilan o'quvchilarni muntazam tanishtirib borish kabi faoliyat ham kiradi. Bularni shartli ravishda quydagilarda ko'rish mumkin:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonining hamma qismlarini belgilash: tashkiliy-mazmunli ish(musiqa bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlarini mazmunini tanlash)

2. Talim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti, jamoatchilik bilan o'zaro hamkorligi.

3. Talim-tarbiya jarayonining rejasini amalga oshirishga doir tashkiliy ishlar(vazifalarni aniq bayon etish, o'quvchilar faoliyatini va ta'lim tarbiya jarayonining boshqa shakllarini uyishtirish)

4. Har bir o'quvchining muntazam o'sib borishi va o'quvchilar jamoasining takomillashuvuni oldindan ko'ra bilish, o'g'il-qizlarni umumiy (hamda musiqiy) kamol topdirish vazifalarini belgilash va izchil amalga oshirish.

5. O'quvchilarda ijtimoiy ahamiyatga ega qadryatlarning muayyan tizimini, ehtiyoj, qiziqish, didni shakllantirishga, faoliyat va xatti-harakat sabablarini, dunyoqarash va dunyoni his etishni belgilashga doir ishlar.

6. Pedagogik faoliyat o'qituvchidan quydagilarni talab qiladi:

a) O'quvchilarning qobiliyatini musiqaga qiziqishlarini, musiqiy bilimlarini, ulardagi ijodkorlik ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishdagi dinamikasini o'rganish.

b) O'qitish usullarini o'rganish, samarali usullarini hamda ularni muvoffaqiyatli qo'llash sharoitlarini aniqlash;

c) Uslubiy qo'llanmalar va taqdiqotlarni o'rganish(ularni tanqidiy baholash)

d) O'zining va boshqa o'qituvchilarning ijobiy hamda salbiy tajribalarini tahlil qilish, ishning samarali usullari va shakllarini umumlashirish hamda ulardan o'z amaliyotida foydalanish;

e) Muntazam ravishda pedagogik kuzatishlar va tajribalar o'tkazish. Musiqa o'qituvchisiga zarur bo'lgan mahoratni muvoffaqiyatli o'zlashtirish uchun pedagoglik, artistlik va musiqachilik qobiliyatlari uyg'unlikda bo'lishi zarur.

Musiqa o'qituvchisi o'z fanini sevishi, unga ishtiyoq bilan yondashishi, o'quvchilarni yaxshi ko'rish, musiqa san'ati vositalari bilan o'qitish va tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi lozim. O'z kasbi bilan bir qatorda o'quvchilarni ham sevadigan o'qituvchi - barkamol o'qituvchi bo'ladi. Fortepiano darslari juda kata tarbiyaviy

imkoniyatga ega. Shuning uchun ularning tarbiyaviy va ta'lim uzviy birlikda bir-birini to'ldirgan holda tushunish lozim. Musiqa tarbiyasi mutaxassis musiqachini emas, balki avvalo ziyoli insonni tarbiyalashdir.